

MOBIL VIDEOKONFERENSALOQA TIZIMIDAN FOYDALANISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Keyingi yillarda mamlakatimizda sudlov faoliyatini raqamlashtirish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar fuqarolarning o'z huquqlari va manfaatlarini himoya qilish yuzasidan sudlarga murojaat qilishini liberallashtirish, umuman odil sudlovga erishish darajasini oshirish, shuningdek sudlar faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash imkonini berdi.

Natijada ariza berish, ishda masofadan ishtirok etish, sud hujjatlarini olish va ishlarning ko'rilishi haqida ma'lumot olish kabi xizmatlar O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining interaktiv xizmatlar portali orqali elektron shaklda amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga bugungi kunda videokonferensaloqa rejimida o'tkaziladigan sud majlislarida mobil videokonferensaloqa tizimidan foydalanishning huquqiy asoslarini yaratish orqali protsessual qonunchilikni takomillashtirish zaruriyati mavjud. Shu sababdan, "Aholiga sud muhokamalarida masofadan ishtirok etish uchun yanada qulay sharoitlar yaratilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 2025 yil 11 martdagi O'RQ-1047- sonli qonuni qabul qilindi. Ushbu Qonun bilan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga, Iqtisodiy protsessual kodeksiga va Ma'muriy sud ishlari yuritish to'g'risidagi kodeksiga aholining sud muhokamalarida masofadan ishtirok etishining huquqiy asoslari yaratilishini nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Jumladan, O'zbekiston

Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksiga ham qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi. Ushbu kodeks 166-moddasi "Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning rejimidagi sud majlisida ishtirok etishini ta'minlash uchun ko'rsatilgan shaxslarning yashash joyi, joylashgan yeri yoki turgan joyi bo'yicha tegishli sudlarning videokonferensaloqa tizimlaridan yoxud ishni ko'rayotgan sudning mobil videokonferensaloqa tizimidan foydalaniladi" mazmundagi uchinchi qism bilan to'ldirildi.

Shuningdek, "Videokonferensaloqa rejimidagi sud majlisida videokonferensaloqa tizimidan foydalangan holda ishtirok etayotgan guvohlarga, ekspertlarga, mutaxassislarga, tarjimonlarga o'z huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi tushuntirilganligi audio va videoyozuv orqali qayd etiladi va bu haqda sud majlisi bayonnomasida ko'rsatiladi" mazmunida beshinchi qism bilan to'ldirildi.

Xuddi shunday o'zgartirishlar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi 209-moddasi, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlari yuritish to'g'risidagi kodeksining 144-moddasiga ham kiritildi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu Qonun fuqarolarning odil sudlovga erishish darajasini yanada oshirishga, fuqarolarning buzilgan huquq va erkinliklari, shuningdek qonuniy manfaatlari ishonchli himoya qilinishini ta'minlashga xizmat qiladi.

B.BEKTURAYEV
Jinoyat ishlari bo'yicha Yangiobod tuman sudining
tergov sudyasi

INSON MANFAATLARI USTUVOR VAZIFA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bilan tashkil etilgan bo'lib, uning tasarrufida Respublikamizning barcha hududlarida, jumladan tumanimizda ham "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi tashkil etilib, samarali faoliyat yuritib kelmoqda. Markazning tumandagi bir yillik faoliyati davomida tuman aholisiga yuzga yaqin turdagi ijtimoiy xizmat va yordamlar ko'rsatishning yangicha tizimi yo'lga qo'yildi.

Ushbu xizmatlardan biri sifatida 2024-yil 1-maydan e'tiboran tumanda ilk marotaba professional psixologik xizmat ko'rsatish boshlandi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad keng aholi qatlamlariga sifatli psixologik yordam ko'rsatish va ularning ruhiy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, quyidagi yo'nalishlarda samarali faoliyat olib bormoqda:

-tazyiq va zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlarga hamda o'zgalar parvarishiga muhtoj, yolg'iz yashovchi keksalarga psixologik yordam ko'rsatish orqali ularning ijtimoiy himoyasini ta'minlash;

-muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslarga psixologik xizmat ko'rsatish orqali ularning integratsiyasini yaxshilashda ko'maklashish;

-nogironligi bo'lgan shaxslarning reabilitatsiya va integratsiyasiga ko'maklashish; -kam ta'minlangan oilalarning ijtimoiy va iqtisadiy barqarorligini ta'minlashda psixologik qo'llab quvvatlash;

-shoshilinch tibbiy va ruhiy yordamga muhtoj shaxslarga psixologik xizmat ko'rsatish; -ozodlikdan mahrum etish muassasalarida jazoni o'tab bo'lgan, giyohvandlik vositalari va psixotrop vositalarni notibbiy iste'mol qiluvchilar hamda tabiiy va texnogen, ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlardan jabrlangan kishilarga psixologik xizmat ko'rsatish belgilangan.

shu o'rinda aytish joizki aholining ma'lum qismi orasida psixologga murojat qilish borasida "psixologga aqliy zaiflar murojaat qilishadi" degan yanglish tushunchalar ham mavjud.

Psixologning psixoterapevt yoki psixiatrlardan farqi nimada? Ular odamlarni qanday usullar bilan davolaydi?

Psixoterapevt – xulq-atvori buzilgan yoki hissiy sohasi buzilgan, jamiyatga moslashishda

qiynalayotgan, nevrozlari bor bo'lgan odamlarga yordam beradi. Bu buzilishlar chegara holati bo'lganligi sababli davolashda qo'shimcha usul sifatida dori-darmonlardan foydalaniladi.

Psixiatr – jiddiy ruhiy buzilishlardan aziyat chekadigan bemorlar bilan ishlaydi. Odatda dori vositalari bilan davolaydigan shifokordir.

Psixologlar esa – bu psixologiya bilan shug'ullanadigan va ruhiy holatlarni, idrok etish, kognitiv, hissiy va ijtimoiy jarayonlar va xatti-harakatlarni o'rganadigan kasb egasi. Ularning faoliyati odamlarning bir-biriga va atrof-muhitga qanday munosabatda bo'lishini tahlil, kuzatish va talqin qilishdan iboratdir.

Shuni unutmastlik lozimki psixolog muammoni hal qilmaydi. Psixologlar psixologik test, baholash, sharhlash va keng qamrovli treninglar o'tadilar. Ular inson psixikasi haqidagi bilimlariga tayangan holda mijozning ruhiy olamida nimalar bo'layotganini tushunishiga yordam beradi. Mijozlar esa nima qilish-qilmaslik, hayotini qanday davom ettirish borasida o'zi mustaqil qaror qabul qiladilar.

Otamurod Rajabov
Yangiobod tuman "Inson"ijtimoiy xizmatlar
markazi psixologi

YANGIOBOD OVOZI YANGIOBOD TUMAN HOKIMLIGI GAZETASI	Bosh muharrir: A. MUHAMMADIYEV Gazeta Jizzax viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 06-041 raqami bilan ro'yhatdan o'tgan.	TAHRIR HAY'ATI: Ibrohim QARSHIBOYEV Azizbek NISHIONOV Valijon XASANOV Sabohat ABDURAHMONOVA Beknazar TOSHOYEV Olimjon BEGMATOV	NASHR UCHUN MAS'UL: A. MUHAMMADIYEV Gazeta tahririyat kompyuter markazida terilib, sahifalandi. Qog'oz bichimi A-3. Gazeta «RASTR PLYUS PRINT» MCHJ da ofset usulida 750 nusxada chop etildi. Korxona manzili: Jizzax shaxri, Sayiljoy ko'chasi, 4-uy. Bosishga ruxsat etildi 30.01.2026-yil BUYURTMA №
MUASSIS: YANGIOBOD TUMAN HOKIMLIGI	MANZILIMIZ: Yangiobod tumani, Yangiobod shaharchasi, Mustaqillik ko'chasi 1-uy.	TELEFON: +998 72 542-11-31	

YANGIOBOD OVOZI

YANGIOBOD TUMANI HOKIMLIGINING IJTIMOIIY-SIYOSII, MA'RIFIY GAZETASI

2-son (63) 30-yanvar 2026-yil, juma	Ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy gazeta	Bahosi erkin narxda	Gazeta 2019-yil yannardan chiqa boshladi
-------------------------------------	-----------------------------------	---------------------	--

GIYOHVANDLIKKA QARSHI BIRLASHAMIZ!

Bugungi globallashuv davrida jamiyat oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri — giyohvandlik va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishi hamda uning yoshlar hayotiga ko'rsatayotgan salbiy ta'siridir. Ushbu illat inson salomatligini yemirishi, oilalar parokandaligiga sabab bo'lishi, jinoyatchilikning ortishiga olib kelishi bilan jamiyat taraqqiyotiga jiddiy xavf tug'diradi. Shu bois, giyohvandlikka qarshi kurash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida doimiy e'tiborda bo'lib kelmoqda.

Ana shunday muhim masalaga bag'ishlab, Davlat komissiyasi tashabbusi bilan "Giyohvandlikka qarshi birlashamiz!" shiori ostida **matbuot anjumani hamda**



yoshlar forumi ZOOM platformasi orqali onlayn tarzda o'tkazildi.

Keng qamrovli muhokama maydoni
Mazkur tadbirda Yangiobod tumanida faoliyat yuritayotgan giyohvandlikka qarshi kurashish bo'yicha komissiya a'zolari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakillari, sog'liqni saqlash tizimi mutaxassislari, ta'lim sohasi mas'ullari, ommaviy axborot vositalari xodimlari hamda faol va tashabbuskor yoshlar ishtirok etdi. Tadbir davomida giyohvandlik va psixotrop moddalarning tarqalish sabablari, ularning inson ruhiyati va jismoniy salomatligiga yetkazadigan og'ir oqibatlari, shuningdek, ushbu illatga qarshi kurashishda davlat va jamoatchilik hamkorligining ahamiyati keng muhokama qilindi.

Yoshlar hayoti va kelajagi — asosiy masala
Matbuot anjumani va forum davomida so'zga chiqqan mutaxassislar giyohvandlikning eng katta zarbasi aynan yoshlar hayotiga berilayotganini alohida ta'kidladilar. Ularning qayd etishicha, noto'g'ri muhit, befarqlik, bo'sh

vaqtni mazmunli tashkil etmaslik, huquqiy bilimlarning yetishmasligi yoshlarning zararli odatlarga berilib ketishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois, yoshlarni sog'lom turmush tarziga yo'naltirish, sport, madaniyat va ma'rifat orqali ularning hayotga bo'lgan qarashlarini mustahkamlash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri etib belgilandi.

Profilaktika — eng samarali yo'l
Tadbirda giyohvandlikka qarshi kurashishda faqatgina jazolash choralariga tayanib qolmasdan, **profilaktik va targ'ibot ishlarini** kuchaytirish muhimligi qayd etildi. Jumladan:

- ta'lim muassasalarida muntazam tushuntirish va ogohlik mashg'ulotlarini o'tkazish;
- ota-onalar bilan hamkorlikni mustahkamlash;
- ommaviy axborot vositalari orqali keng targ'ibot ishlari olib borish;
- yoshlar orasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish kabi masalalar samarali yechim sifatida e'tirof etildi.

Forum doirasida faol yoshlar tomonidan bildirilgan takliflar, shaxsiy fikrlar va hayotiy misollar tadbirning mazmun-mohiyatini yanada boyitdi.

Sog'lom turmush tarzi — barqaror taraqqiyot asosi
Tadbir yakunida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, yoshlarni zararli odatlardan asrash, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar izchil davom ettirilishi ta'kidlandi. Bu borada davlat idoralari, jamoatchilik tashkilotlari, ta'lim muassasalari va ommaviy axborot vositalarining hamkorligi muhim ahamiyat kasb etishi qayd etildi.

Xulosa
Mazkur onlayn matbuot anjumani va yoshlar forumi giyohvandlikka qarshi kurash masalasida jamiyatning barcha qatlamlari, ayniqsa yoshlarning faol ishtiroki naqadar muhim ekanini yana bir bor ko'rsatdi. Tadbir yoshlarni hushyorlikka, ongli tanlov qilishga, sog'lom hayot tarzini o'z hayot mezoniga aylantirishga undadi.

Zero, kelajagimiz — sog'lom, bilimli va barkamol yoshlar qo'lida.

Giyohvandlikka qarshi birlashaylik, sog'lom jamiyatni birgalikda barpo etaylik!

Yangiobod tuman hokimligi axborot xizmati

Yangiobod tuman adliya bo'limi boshlig'i